

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar oyi uchun

- I. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

2026-yilning 1-fevral holatiga ko'ra viloyatda 4372 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulushi 765 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,7 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 743 tasi (17,3 %) kiyim ishlab chiqarishga, 614 tasi (14,3 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 433 tasi (10,1 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-fevral holatiga ko'ra



II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 2 784,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,6 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Namangan viloyati	2 784,3	108,6
Namangan shahar	835,0	112,8
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq tumani	110,4	107,5
Kosonsoy tumani	156,5	103,4
Namangan tumani	92,9	101,3
Norin tumani	33,8	115,7
Pop tumani	63,2	113,4
To'raqo'rg'on tumani	529,3	107,6
Uychi tumani	160,8	106,8
Uchqo'rg'on tumani	131,7	133,8
Chortoq tumani	82,3	117,1
Chust tumani	207,9	114,3
Yangiqo'rg'on tumani	30,9	110,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2026- yil yanvar oyida 880,8 ming so'm (2025- yil yanvar oyida 696,1 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,5 % ni ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar oyida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 2 279,3 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (81,9 %)ni tashkil etgan holda elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 466,3 mlrd so'm (16,7 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 28,7 mlrd so'm (1,0 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 10,0 mlrd so'm (0,4 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar oyida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar oylarida viloyatda 4 857,5 tonna paxta chigiti (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan 192,5 % ga ko'paygan), 62,9 tonna paxta tiviti(lint) (18,5 % ga kamaygan), 4 454,0 tonna ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (18,5 % ga ko'paygan), 3 361,5 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (273,9 % ga ko'paygan) hamda 612,0 tonna tozalanmagan paxta yog'i (7,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar*	2025-yil yanvar*	2026-yil yanvar
Paxta chigiti, tonna	4 857,5	1 483,9	4 340,7
Paxta tiviti (lint), tonna	123,1	77,2	62,9
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	3 633,0	3 758,0	4 454,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	2 485,0	899,0	3 361,5
Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	1 778,3	659,0	612,0
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	1 362,0	884,3	240,4
Paxta iplari, tonna	3 888,5	2 936,0	3 307,0
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	76,7	859,5	92,2

**2024-2025-yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori ulushga ega faoliyat turi to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi – 39,1 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,7 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,5 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %)ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi esa – 3,7 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,1 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,2 % ni (2025-yilning yanvar oyida 1,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,2 % (6,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 14,9 % (10,8 %), quyi texnologiyali 74,7 % (81,0 %)ni tashkil etgan.

Namangan viloyatida yirik korxonalar tomonidan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 98,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 420,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar*	2025-yil yanvar*	2026-yil yanvar
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	536,7	393,6	389,4
Issiqlik energiyasi-ming. Gkal.	13,1	4,5	18,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlarida 68,8 % ga ko'payish, oqava suvlarning shlami 156,0 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 100,0 % ga ko'payganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar*	2025-yil yanvar*	2026-yil yanvar
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlari- mlrd. so'm	10,1	10,1	17,1
Oqava suvlarning shlami - mlrd.so'm	0,8	0,9	2,2
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari- mlrd so'm	5,0	3,5	7,1

*2024-2025-yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 307,0 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 46,9 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 45,4 % ni tashkil etgan.



*2025-yil yanvar oyi uchun kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ko'rsatkichlari qayta aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Namangan viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indeksarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

N. Abduraxmonova
69 211-72-00 (5010)

Manzil:

**160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.**
